



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

№4/2

2024



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 4/2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров  
PhD, доцент И.М.Пардаева  
А.Х.Мингбоев

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,  
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53  
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Умар Худайбердиев</b> Камбағаллик даражаси ва уни қисқартириш йўллари	66
<b>Меҳрангиз Олимовна Мамаюнусова</b> Аҳолининг ўсиши, камбағаллик даражаси ва аҳоли камбағал қатламининг ўзгариш тенденциялари	69
<b>ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС</b>	
<b>Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova</b> Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirish yondashuvlari	74
<b>Навруз Абдуллаевич Кудратов</b> Пути эффективного развития услуг электронной коммерции (на примере Самаркандской области)	77
<b>Dilrabo Shirinboyevna Mardonova</b> Samarqand viloyatida mehmonxona xizmatlari integral samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblash	80
<b>Farhod Mahmudovich Tirkashyev</b> Xizmatlar ko‘rsatish sohasida intellektual mulk obyektlarini boshqarish xususiyatlari	86
<b>Lazizjon Sharifovich Kuldoshev</b> Xizmat ko‘rsatish sohasida raqobatbardoshlik salohiyatini baholashga ilmiy yondashuvlar	91
<b>ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ</b>	
<b>Аҳмаджон Таниев</b> Туризмнинг атроф-муҳитга таъсири ва барқарор ривожланиш стратегиялари	97
<b>Umida Ziyadullayevna Raximova</b> Turizm Infratuzilmasining hozirgi holati	105
<b>Gulmira Rabbonovna Tursunova</b> Turistik mahsulot iste’molchisini tasniflash	110
<b>Bekzod Sherzodovich Sharipov</b> Inklyuziv turizm destinatsiyalarini shakllantirishning konseptual, nazariy-metodologik asoslari	116
<b>Ulug‘bek Egamberdiyevich Boynazarov</b> Oilaviy mehmon uylari uchun mahalliy va xalqaro me‘yorlar xususiyatlari	121
<b>Dilyor Zafarovich Hakimov</b> O‘zbekistonda etnografik turizmni rivojlantirish samaradorligini oshirish yo‘llari	124
<b>Зухрали Турсуналиевич Абдулхакимов</b> Туризм индустриясини ривожлантиришда минтақавий назариялар ўрни ва роли	130
<b>Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova</b> Mehmonxona xo‘jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilishning innovatsion yechimlari	135
<b>КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК</b>	
<b>Азизбек Исомиддин ўғли Асроров</b> Кичик бизнес субъектларини кредитлаш тизимини такомиллаштириш масалалари	139
<b>Pyos Pخomovich Ayubov, Sumbula Kurasheva</b> Iqtisodiy islohotlarning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o‘rni	145

<p><b>Б.Шарипов</b></p> <p><b>Концептуальные, теоретические и методологические основы формирования инклюзивных туристических дестинаций</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В данной статье анализируется сегмент потребителей инклюзивных туристических услуг и выделяются их основные группы. Изучив особенности дестинаций инклюзивного туризма, необходимые признаки для того, чтобы дестинация была инклюзивной, были классифицированы на три уровня, определены основные факторы, влияющие на деятельность дестинаций инклюзивного туризма, а также основные принципы формирования инклюзивной дестинации.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> дестинация, инклюзивность, путешествия, туристическая индустрия, субъекты туризма, люди с ограниченными возможностями, спрос, доступность, универсальность, гибкость, управление дестинацией, стратегия, интеграция.</p>	<p><b>B.Sharipov</b></p> <p><b>Conceptual, theoretical and methodological foundations for the development of inclusive tourism destinations</b></p> <p><b>Abstract.</b> This article analyses the consumer segment of inclusive tourism services and identifies its main groups. After examining the characteristics of inclusive tourism destinations, the necessary attributes for a destination to be inclusive have been classified into three levels, the main factors influencing the activities of inclusive tourism destinations have been identified, as well as the main principles of creating an inclusive destination.</p> <p><b>Keywords:</b> destination, inclusiveness, travel, tourism industry, tourism actors, people with disabilities, demand, accessibility, universality, flexibility, destination management, strategy, integration.</p>
--	--

Ulug‘bek Egamberdiyevich Boynazarov – SamISI mustaqil izlanuvchisi

### OILAVIY MEHMON UYLARI UCHUN MAHALLIY VA XALQARO ME‘YORLAR XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Maqolada oilaviy mehmon uylari va ularga qo‘yiladigan asosiy talablar, shu jumladan, sanitariya-gigiena, xavfsizlik, qulayliklar, o‘z faoliyatini davlat reyestrda ro‘yxatdan o‘tkazish, qo‘llaniladigan talablar va xizmatlarning sifatini ta‘minlash masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** oilaviy mehmon uylari, turizm, xususiy uy-joy, sanitariya-gigiena, xavfsizlik, sifatli xizmat, turistik yo‘nalishlar, mahalliy madaniyat.

**Kirish.** O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi va uning iqtisodiyotdagi o‘rni tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, oilaviy mehmon uylari turizm sohasining alohida bir yo‘nalishi bo‘lib, mamlakatimizda mehmonlarni kutib olishning yangi usullarini taqdim etadi. Oilaviy mehmon uylari xususiy uy-joy obyektlarida tashkil etilgan kichik mehmonxonalar bo‘lib, ular mehmonlarga qulay yashash sharoitlari, samimiy muhit va madaniy xizmatlar taklif etadi. Bu turdagi turizmning yuksalishi mamlakat ichidagi turistik joylarga bo‘lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi va mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi masalalarga asoslanib, oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish va ularga talablar qo‘yish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasining qarori ishlab chiqildi. Ushbu qaror turizmni rivojlantirishda, mehmonxona xizmatlarining sifatini oshirishda va xavfsizlikni ta‘minlashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Qaror, xususan, mehmonxona xizmatlari ko‘rsatishning sanitariya-gigiena talablariga mosligini ta‘minlash, mahalliy aholi va turistlarga sifatli xizmatlar taqdim etish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur hujjat asosida, oilaviy mehmon uylari o‘z faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va davlat tomonidan belgilangan normativlarga rioya etish orqali mustahkam o‘rin egallashlari mumkin.

**Mavzuga oid adabiyotlarning o‘rganilganlik darajasi:** Joylashtirish vositalari hamda ularning o‘ziga xos turlari, shakllarini tashkil qilish va rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlari ko‘plab xorijlik olimlar<sup>1</sup>, jumladan: A.Yu.Aleksandrova, N.A.Goncharova, M.A.Jukova, I.V.Zorin, Ye.N.Pavlova, W.Althof, D.Buhalis va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu

<sup>1</sup> Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001.– 464 с.; Гончарова Н.А. Управление жизненным циклом дестинации // Известия Томского политехнического университета. Т.318, №6,2011 с.53-55; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. -160 с.; Зорин И.В. Дестинация. М.: ВЛАЦ, 2009. 28 с.; Павлова Е.Н. Развитие регионального профессионального туристского образования на основе туристской дестинации (на примере Карелии). Петрозаводск: КарНЦРАН. 2009. 105 с.; Althof W. Incoming-Tourismus. Munchen. Wien: Oldenbourg Verlag. 2001. 356 p.; Buhalis D. Marketing the competitive destination of the future//Tourism Management 2000.№21(1). P.97-116.

muammolarni o‘rganishga O‘zbekistonlik olimlardan<sup>1</sup> M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, N.T.To‘xliyev, B.N.Navro‘z-zoda, D.X.Aslanova, A.A.Eshstayev, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan. Ta’kidlangan olimlar tomonidan ilmiy ishlar joylashtirish vaositalarni rivojlantirish bilan bog‘liq umumiy mavzularga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, ularni tashkil etish va samaradorligini oshirishga doir ilmiy asoslangan tadqiqotlar yetarli emas. Masalaning ushbu jihati aynan ushbu mavzuni dolzarb mavzuni yechimiga bag‘ishlanganini bildiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada turizmni rivojlantirish uchun yangi qonun va qarorlar qabul qilinishi, shu jumladan oilaviy mehmon uylari, xostellar, o‘tovli va chodirli oromgohlarni tashkil etishga oid tartiblar va ularning faoliyatiga talablar belgilash. Mehmon uylarini reestrga kiritish, talablarga rioya qilish, xizmatlarning sifatini ta‘minlash hamda xavfsizlik choralari tadbirlari hamda turistlar uchun qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish tartibi ta’riflangan.

**Tahlil va natijalar.** Yangi O‘zbekistonda turizm sohasi va mehmondo‘stlik industriyasini yanada rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz miqyosida va uning barcha viloyatlarida turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga asosan dasturlar ishlab chiqilgan va ular bo‘yicha maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga har bir viloyat va hudud o‘zining xususiyatlaridan, mavjud turistik resurslaridan kelib chiqqan holda yondoshilmoqda.

Respublikamizda oilaviy mehmon uylari uchun me‘yorlar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan 2023-yil 27-noyabrdagi “Oilaviy mehmon uylari, xostellar, o‘tovli va chodirli oromgohlar faoliyatini tashkil etish, ushbu sohada davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 622-sonli Qarori bilan belgilangan. Jumladan Qarorning 1-ilovasida “Oilaviy mehmon uylari, xostellar, o‘tovli va chodirli oromgohlar faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi NIZOM bilan oilaviy mehmon uylari, xostellar, o‘tovli va chodirli oromgohlar faoliyatini tashkil etish va ular tomonidan xizmat ko‘rsatish tartibi belgilangan.

“Oilaviy mehmon uyi” — bu mehmon uyi egasi va uning oila a‘zolari bilan birga yashab, 10 nafargacha turistlarga vaqtincha yashash va ovqatlanish xizmatlari ko‘rsatadigan xususiy uy. Mehmon uyi faoliyati Reestrga kiritish orqali ro‘yxatga olinib, faqat shu holatda xizmat ko‘rsatish huquqiga ega bo‘ladi. Xizmatlar oilaviy tadbirkorlar yoki xususiy tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatiladi va kommunal xizmatlar uchun to‘lovlar aholi uchun belgilangan tariflarga asoslanadi. Mehmon uyi egasi o‘z oila a‘zolari bilan birga yashash shartlariga asoslanadi.

Oilaviy mehmon uylari faoliyatining qo‘yidagi muhim jihatlari qayd etilgan:

1. Xizmatlar va shartlar: Mehmon uylari o‘z xizmatlarini muvofiq tartibda va belgilangan sifatda ko‘rsatishi, sanitariya-gigiena shartlariga, xavfsizlikka va turistlar uchun qulayliklar yaratishga amal qilishi shart.
2. Qo‘shimcha xizmatlar: Mehmon uylari turistlarga turli qo‘shimcha xizmatlar taklif qilishlari mumkin. Bunga hunarmandchilik bo‘yicha master-klaslar, milliy taomlarni tayyorlash, madaniy tadbirlar va turizmga oid xizmatlar kiradi.
3. Reestrga kiritish va chiqarish: Mehmon uylarining rasmiy reestrda bo‘lishi, bu reestrda kiritilish va chiqarilish tartibi belgilangan. Reestrda chiqarish turli sabablar bilan, shu jumladan, o‘z faoliyatini tugatish yoki qonunbuzarliklar uchun amalga oshirilishi mumkin.
4. Monitoring va nazorat: Turizm qo‘mitasi va vakolatli organlar mehmon uylarining faoliyatini muntazam monitoring qilishlari, ularning talablarga rioya qilishini tekshirishlari va kamchiliklar bo‘lsa, ularni bartaraf qilishga tadbirlar ko‘rishlari shart.
5. Qonunchilik va hujjatlar: Oilaviy mehmon uylari faoliyatiga doir talablar, shu jumladan sanitariya, xavfsizlik, mahalliy qonunlar va turizm sohasidagi normativ hujjatlar to‘liq amalga oshirilishi kerak.

Oilaviy mehmon uylarining rivojlanishi va ularning xizmatlarini takomillashtirish orqali

<sup>1</sup> Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. -Т.: Гос.науч.изд-во «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2006. – 424 с.; Тухлиев И. ва бошқа муаллифлар. Туризмни режалаштириш. Дарслик. -Т.: “Iqtisod-Moliya” нашриёти, 2010. – 238 б.; Пардаев М., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни тахлил қилиш ва баҳолаш. -Самарқанд: СамИСИ, 2006. -137 б.; Навруз-зода Б. ва б. Туристтик ҳудуд рақобатбардошлиги. Монография. Б.: 2017. – 156 б.; Асланова Д. Модели формирования туристского кластера за рубежом. «Сервис» илмий оммабоп журнали, 2013. №1;

mamlakatda turizm industriasining muhim tarkibiy qismi bo‘lishini ta’minlash maqsad qilingan.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan Nizomda oilaviy mehmon uylarining faoliyatini tartibga solish, ularning yuqori sifatli xizmat ko‘rsatishini ta’minlash, sanitariya-gigiyena sharoitlari, xavfsizlik, hamda mehmonlarning qulayligini kafolatlashga alohida e’tibor qaratilgan. Bu hujjat, oila mehmon uylarining ishlash mexanizmlarini yaxshilash, ularni sifatli va xavfsiz xizmatlar bilan ta’minlashga yordam beradigan qat’iy talablarni belgilaydi. Shuningdek, mehmon uylarining rejimga rioya qilishini ta’minlash uchun monitoring tizimi ishlab chiqilgan va oila mehmon uylarining ro‘yxatdan o‘tishi, ular tomonidan taqdim etiladigan xizmatlarning sifatiga nazorat o‘rnatilgan.

1. Oila mehmon uylarini xususiylashtirish va modernizatsiya qilish: Oila mehmon uylarining ishlashida yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatish, mijozlarga qulayliklar yaratish, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali sohani modernizatsiya qilish zarur. Mehmonxona xizmatlarida ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash ham foydali bo‘ladi.

2. Tashrif buyuruvchilarni o‘zaro kommunikatsiyasini yaxshilash: Mehmon uylariga joylashadigan turistlar bilan doimiy aloqada bo‘lish, o‘zaro fikr almashish imkoniyatlarini yaratish va ijtimoiy tarmoqlar orqali xizmatlar haqida ma’lumot taqdim etish mehmonlarning qulayligini oshiradi.

3. Xodimlarning malakasini oshirish: Mehmonxona va oilaviy mehmon uylarida ishlayotgan xodimlarning professional malakasini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ingliz tili kabi xalqaro tillarni bilish muhimdir. Bu xizmatlarning sifatini oshirish va xalqaro turistlar bilan samarali muloqot qilishda yordam beradi.

4. Hukumat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik: Turizm sohasi va oilaviy mehmon uylarini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish lozim. Davlatning investitsiya rag‘batlari va biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlari oilaviy mehmon uylarining yanada rivojlanishiga turtki bo‘ladi.

5. Reyting tizimi va reklama: Oilaviy mehmon uylarini rivojlantirish uchun ularni reytinglash tizimini yaratish va shu asosda reklama qilish, mehmonlar uchun to‘g‘ri va aniq tanlovni ta’minlash zarur. Bu turistlarga xizmatlar va narxlar haqida aniq ma’lumot berishi va ularni eng yaxshi sharoitlarga ega joylarga yo‘naltirishga yordam beradi.

6. Sanitariya va xavfsizlikni yaxshilash: Mehmon uylarining sanitariya-epidemiologik nazoratini kuchaytirish, xavfsizlik choralari va favqulodda vaziyatlar uchun reja tuzish orqali turistlarga yanada ishonchli va xavfsiz xizmatlar taqdim etilishi kerak.

Yuqoridagi takliflar asosida, oilaviy mehmon uylarining faoliyatini yaxshilash va turizm sektorini yanada rivojlantirish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi yildagi PF-60-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamisining 2023-yil 27-noyabrdagi “Oilaviy mehmon uylari, xostellar, o‘tovli va chodirli oromgohlar faoliyatini tashkil etish, ushbu sohada davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish” to‘g‘risida 622-sonli qarori.
3. “Oila mehmon uylarining iqtisodiyoti va boshqaruvi” / Muallif: S. G‘afurov. – Toshkent, 2019.
4. S.Abdukarimov “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda oilaviy mehmon uylarining roli va ahamiyati” // “Turizm va iqtisodiyot” jurnali, 2022.
5. L.Karimova “Oilaviy mehmon uylarining iqtisodiy samaradorligi va yangi boshqaruv modellarini tatbiq etish” // “Turizm sanoati va amaliyot” jurnali, 2023.

<p><b>U.Boynazarov</b></p> <p><b>Особенности местных и международных стандартов для семейных гостевых домов</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье раскрыты основные требования к семейному гостевому дому, безопасности, санитарии, комфорту, удобству, регистрации в государственном реестре здравоохранения, требования и обеспечение качества обслуживания.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> семейные гостевые дома, туризм, частное жилье, соблюдение санитарно-гигиенических требований, безопасность, качественный сервис, туристские дестинации, местная культура.</p>	<p><b>U.Boynazarov</b></p> <p><b>Features of local and international standards for family guest houses</b></p> <p><b>Abstract.</b> The article reveals the basic requirements for a family guest house, safety, sanitation, comfort, convenience, registration in the state healthcare register, requirements and ensuring quality of service.</p> <p><b>Keywords:</b> family guest houses, tourism, private housing, compliance with sanitary and hygienic requirements, safety, quality service, tourist destinations, local culture.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

20.11.2024 йилда теришга берилди. 11.12.2024 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0134В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.